

 Sahifani PDF tarzda yuklab olish (54 Kb)  Versiyasi  Sahifani doc tarzda yuklab olish (54 KB)

# TASHQI SAVDONI YANADA ERKINLASHTIRISH VA SAVDO OPERATSIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA

Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish, tadbirkorlik sub`ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun teng va qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ortiqcha to`siq va g`ovlarni bartaraf etish maqsadida:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi va "O`zstandart" agentligining O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin majburiy inspeksiya o`tkazish tartibotini bekor qilish haqidagi taklifi qabul qilinsin.

2. Belgilab qo`yilsinki:

O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin inspeksiya o`tkazish ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi;

O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlarni yuklashdan oldin inspeksiya o`tkazish xizmatlarini ko`rsatish huquqiga vakolatli organ tomonidan xalqaro standartlar talablariga muvofiq akkreditatsiya qilingan inspeksiya organlari ega;

inspeksiya organlarining xizmatlari, shu jumladan yuk ortishdan oldin inspeksiya o`tkazish xizmatlari uchun haq to`lash ularning O`zbekiston Respublikasi hududidagi banklarda ochilgan hisobraqamlari orqali amalga oshiriladi;

O`zbekiston Respublikasiga import qilinadigan tovarlar sifati, miqdori va narxlarining "O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKda (keyingi o`rinlarda - Markaz) ro`yxatdan o`tgan import kontraktlari shartlariga muvofiqligini ta`minlash bo`yicha zarur choralarni ko`rish uchun javobgarlik import qiluvchining mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatiladi;

davlat bojxona xizmati organlari Markazda ro`yxatdan o`tgan import kontraktlari doirasida erkin muomalaga chiqarilgan tovarlarning miqdori va narxlar haqidagi ma`lumotlarni axborot tizimlaridan foydalangan holda Markazga taqdim etadi.

3. Davlat organlari va tashkilotlariga, shuningdek, tijorat banklariga yuk ortishdan oldin inspeksiya o`tkazuvchi inspeksiya organini tanlash haqida import qiluvchilarga tavsiyalar berish taqiqlansin.

4. O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti "O`zstandart" agentligi va Davlat bojxona qo`mitasi bilan birgalikda ikki oy muddatda, mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, davlat manfaatlariga etkazilgan zararni qoplash kafolatlarini ta`minlovchi mexanizmlarni joriy etgan holda import qiluvchilar va vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslarining javobgarligini kuchaytirish bo`yicha takliflar kiritilsin.

5. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bir oy muddatda akkreditatsiya ob`ektlari tomonidan vakolatli organga o`tkaziladigan to`lovlarni undirish shartlari va miqdorlarining tanqidiy qayta ko`rib chiqilishini ta`minlasin.

6. Belgilansinki, Markaz faoliyati sohasi tatbiq etiladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridlarini o`tkazish (xarid tartibotlarini bajarish, reklama ishlarini tashkil etish, tender va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish va boshqalar) bo`yicha ixtisoslashgan tashkilotni tanlash O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi tomonidan o`rnatiladigan talablarga javob beradigan ixtisoslashgan tashkilotlar orasidan tanlov asosida amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bir oy muddatda davlat xaridlarini o`tkazish bo`yicha xizmatlar ko`rsatish huquqiga ega ixtisoslashgan tashkilotlarga qo`yiladigan talablarni, shuningdek, davlat xaridlarini o`tkazish doirasida ixtisoslashgan tashkilotlar tomonidan ko`rsatiladigan xizmatlar turlari ro`yxatini o`rnatilgan tartibda belgilasin.

7. "O`zstandart" agentligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o`zgartish va qo`shimchalar to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

8. Vazirliklar va idoralar o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi direktori Sh.M.Sadikov va O`zbekiston Respublikasining Bosh prokurori O.B.Murodov zimmasiga yuklansin.

**O`zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**SH.MIRZIYOEV**

Toshkent shahri, 2018 yil 24 mart

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)  
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)  
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)